

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA MANTIQUIY
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Dilnoza Xikmatullayeva

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

E-mail: xikmatullayevadilnoza@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mantiqiy tafakkurning mohiyati, uning shakllanish bosqichlari, ta‘lim jarayonidagi o‘rni hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, mashhur pedagog va psixolog olimlarning ilmiy qarashlari asosida mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy tafakkur, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik ahamiyat, psixologik rivojlanish, ta‘lim metodlari, kognitiv jarayon, refleksiya.

Аннотация. В статье раскрывается педагогическое и психологическое значение развития логического мышления у учащихся начальных классов. Рассматриваются сущность логического мышления, этапы его формирования, роль в образовательном процессе, а также эффективные методы его развития. Анализ проводится на основе научных взглядов известных педагогов и психологов.

Ключевые слова: логическое мышление, начальное образование, педагогическое значение, психологическое развитие, методы обучения, когнитивные процессы.

Abstract. This article explores the pedagogical and psychological importance of developing logical thinking in primary education. It analyzes the nature of logical thinking, its stages of development, its role in the learning process, and effective teaching methods that foster it. The study is supported by theoretical perspectives of well-known educators and psychologists.

Keywords: logical thinking, primary education, pedagogical importance, psychological development, teaching methods, cognitive processes.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning faqat bilim olishlari emas, mustaqil fikrlash, muhokama qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonning asosiy poydevorini tashkil etadi. Chunki aynan shu davrda bola tafakkuri faol shakllanadi va keyingi ta'lim bosqichlari uchun asos yaratila boshlaydi. Mantiqiy tafakkur – bu har bir shaxsning biror voqeani ongli ravishda anglashi, tahlil qilish, taqqoslashi va umumlashtirish orqali xulosaga kelish jarayoni hisoblanadi. U o'quvchining faqatgina bilim darajasini emas, balki uning intellektual salohiyatini ham belgilaydi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy qism

1.Mantiqiy tafakkurning pedagogik ahamiyati. Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkur bolalarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi. Bunda bola faqat tayyor ma'lumotni yodlabgina qolmasdan, balki uni tushunishi, tahlil qilishi va amalda qo'llay olishi zarur. Bu esa ta'limning sifatini oshiradi. Amerikalik pedagog J.Dewey ta'lim jarayonida reflektiv fikrlashni rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, bilim olish faqat tayyor ma'lumotni qabul qilish emas, balki muammoni hal qilish

jarayoni ekanligini asoslab bergan¹. Uning nuqtai nazardan qaraganda, mantiqiy tafakkur bolani faol subyektga aylantiradi. Shuningdek, J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari konkret-operatsion bosqichda bo‘lib, ular mantiqiy operatsiyalarni asta-sekin o‘zlashtiradi². Bundan ko‘rinadiki aynan shu davrda to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon orqali mantiqiy tafakkurni samarali rivojlantirish mumkin. Pedagogik jihatdan qaraganda mantiqiy tafakkur quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi;
- bilimlarni to‘g‘ri algoritmda o‘zlashtirishga yordam beradi;
- muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- fanlar kesimida bog‘liqlikni anglashni osonlashtiradi.

2.Mantiqiy tafakkurning psixologik ahamiyati. Psixologik nuqtai nazardan mantiqiy tafakkur shaxslarning bilish jarayonlari bilan bir-biriga bog‘liq. U diqqat, xotira, idrok va tasavvur kabi psixik jarayonlarning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mashhur rus psixologi L.Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar yoki tengdoshlar yordamida murakkab vazifalarni bajarish orqali o‘z tafakkurini rivojlantiradi³. Bu bo‘lsa mantiqiy fikrlashni shakllantirishda ijtimoiy muhitning muhimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, A.N.Leontev faoliyat nazariyasida tafakkur inson faoliyati jarayonida shakllanishini ta‘kidlaydi⁴.

¹ Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co, 1910. – p. 45.

² . J.Piaje. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – p. 67.

³ L.S.Vygotsky . Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – p. 86.

⁴ A.N.Leontiev Activity, Consciousness, Personality. – Moscow: Progress Publishers, 1978. – p. 102.

Bundan ko'rinadiki, o'quvchining faol ishtiroki, amaliy mashg'ulotlar va interfaol metodlar orqali mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Psixologik ahamiyati shularda namoyon bo'ladi:

- kognitiv rivojlanishni tezlashtiradi;
- o'z fikrini mustaqil ifodalashga yordam beradi;
- o'ziga ishonchni oshiradi;
- refleksiv fikrlashni shakllantiradi.

3. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodlari. Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda bu metodlar samarali hisoblanadi:

1. Muammoli ta'lim metodi – bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi.
2. Didaktik o'yinlar – bolalarning mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishini oshiradi va tafakkurni faollashtiradi.
3. Taqqoslash va tahlil mashqlari – mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradi.
4. Savol-javob metodi – fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi.
5. Loyihaviy faoliyat – ijodiy va mantiqiy fikrlashni uyg'unlashtiradi.

Masalan, B.Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyaga ko'ra, bilim olish jarayoni oddiy eslab qolishdan murakkab tahlil va baholash bosqichigacha rivojlanadi⁵. Bu esa mantiqiy tafakkurning bosqichma-bosqich shakllanishini ko'rsatadi.

4. Fanlararo yondashuv va mantiqiy tafakkur. Mantiqiy tafakkur barcha fanlar bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa:

- matematika – tahlil va hisoblash;

⁵. B.Bloom. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longmans, 1956. – p. 29.

- ona tili – fikrni ifodalash;
- tabiatshunoslik – sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish.

Shu sababli ta’lim jarayonida integratsion yondashuvni qo‘llash mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi. Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning intellektual rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni, zamonaviy metodlardan foydalanish va individual yondashuv orqali har bir o‘quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Natijada o‘quvchi nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co, 1910. – p. 45.
2. J. Piaget. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – p. 67.
3. L.S. Vygotsky . Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – p. 86.
4. A.N. Leontiev Activity, Consciousness, Personality. – Moscow: Progress Publishers, 1978. – p. 102.
5. B. Bloom. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longmans, 1956. – p. 29.